

YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8231986>

Muhidinov Mironshox Olimovich

*Buxoro psixologiya va xorijiy
tillar insituti 1-bosqich magistranti*

H.H.Jabborov

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

Annotation

Ushbu maqolada yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik asoslari hamda milliy istiqlol g'oyasi jamiyatimiz taraqqiyotining mafkuraviy tamoyillarini yoritib berilgan. Mafkura nima, u qanday g'oyalar asosida shakllanadi va qay tarzda jamiyatni harakatga keltiradi? Nega ayrim Mafkuralar ba'zi millatlarning, yuksalishiga sabab bo'lsa, ayrimlari butun-butun xalqlarni inqiroz va tanazzulga duchor etadi? «Milliy istiqlol g'oyasi» bo'yicha mazkur mashg'ulotimiz aynan shu va shu kabi masalalar talqiniga bag'ishlangan. Inson o'zining aql-zakovati, iymon-e'tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi. Inson – ongli mavjudot. Ongni shartli ravishda ikki katta qismga bo'lismumkin: birinchisi, insonning ruhiy olami; ikkinchisi – fikriy olam, ya'ni tafakkur olamidir. Ruxiy olam (bu soxani ruxshunoslik ilmi – psixologiya tadqiq etadi) o'z tarkibiga sezgilar, idroq, tasavvur, kechinma, xis-xayaqon, diqqat, xotira va boshqalarni qamrab oladi. Tafakkurning mantiqiy shakllariga tushuncha, xukm va xulosa kabilar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

Milliy istiqlol g'oyasi, Mafkura, psixofiziolog, mafkuraviy immunitet, individuallik, iyerarxik tizim, kontetn tahlil, korrelyasion tahlil, ideologiya, politeizm.

Аннотация

В данной статье описаны психологические основы формирования идеологического иммунитета у молодежи и мировоззренческие принципы развития нашего общества с идеей национальной независимости. Что такое идеология, на каких идеях она основана и как она движет обществом? Почему одни идеологии являются причиной подъема одних наций, а другие приводят к кризису и упадку целых наций? Наш тренинг по «идее национальной независимости» посвящен трактовке этих и подобных вопросов. человек отличается от всех других живых существ своим разумом, верой и творчеством. Человек – сознательное существо. Сознание можно условно разделить на две большие части: первая – это духовный

мир человека; второй – интеллектуальный мир, т. е. мир мышления. Духовный мир (эта область изучается наукой о духовности - психологией) включает в себя ощущения, восприятие, воображение, опыт, эмоции, внимание, память и другие. Объясняются логические формы мышления, такие как понятие, суждение и заключение.

Ключевые слова

Идея национальной независимости, Идеология, психофизиолог, идеологический иммунитет, индивидуальность, иерархическая система, контент-анализ, корреляционный анализ, идеология, политеизм.

Annotation

This article describes the psychological foundations for the formation of ideological immunity among young people and the ideological principles of the development of our society with the idea of national independence. What is an ideology, what ideas is it based on, and how does it move society? Why do some ideologies cause the rise of some nations, while others lead to the crisis and decline of entire nations? Our training on "the idea of national independence" is devoted to the interpretation of these and similar issues. man differs from all other living beings in his mind, faith and creativity. Man is a conscious being. Consciousness can be conditionally divided into two large parts: the first is the spiritual world of man; the second is the intellectual world, that is, the world of thinking. The spiritual world (this area is studied by the science of spirituality - psychology) includes sensations, perception, imagination, experience, emotions, attention, memory and others. Logical forms of thinking are explained, such as concept, judgment and conclusion.

Key words

Idea of national independence, Ideology, psychophysiolist, ideological immunity, individuality, hierarchical system, content analysis, correlation analysis, ideology, polytheism.

Kirish

Milliy istiqlol g'oyasi jamiyatimiz taraqqiyotining Mafkuraviy tamoyillarini ifoda etadi. Shu ma'noda, bu g'oya mamlakatimiz mustaqilligini mustaxkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon mustakil barpo etishga xizmat qiladigan Mafkura to'g'risidagi yaxlit va izchil ta'limotdir. Bu ta'limot o'z tushuncha va tamoyillariga, tarixiy negizlari, ilmiy, falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlariga ega muayyan tarixiy zarurat mujassami bo'lgan nazariya xamdir. U aynan nazariya sifatida ijtimoiy vokelikning ifodasi tarzida namoyon bo'ladi, o'ziga xos shakllanish qonuniyatlarini va xususiyatlariga ega bo'lgan umummiliy xodisa xisoblanadi. Milliy istiqlol g'oyasi yurtimizda yashaydigan xar bir millat, ijtimoiy gurux, din, partiya yoki qatlam vakili uchun umumiylmezondir. Shu

ma'noda u 130 dan ziyod millat vakillaridan tashkil topgan O'zbyekiston xalqining, mustaqillikni mustaxkamlash yulidan borayotgan jamiyatimizning umumiyligi g'oyasidir. Jaxon xamjamiyatining mustaqil a'zosi va tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekistonni, milliy davlatchilik an'analarimizni asrab-avaylash, mamlakatimiz sarhadlari yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlash xamda fuqarolarimizda yot va begona g'oyalarga qarshi Mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yulida birlashtirish, Vatan ravnaki, yurt tinchligi va xalq farovonligi ishiga safarbar etish bu g'oyaning asosiy maqsad va vazifasidir. Mustaqillik yillarida shakllanish yo'liga kirgan milliy istiqlol Mafkurasi xalqimizning asriy an'ana va qadriyatlarini, milliy o'zligimizni O'zida mujassamlashtirib, ularni umuminsoniy Qadriyatlar, dunyo sivilizasiyasi yutuklari xamda ilg'or, taraqqiyparvar g'oyalar bilan boyitib, mamlakatimiz O'z oldiga ko'ygan ezgu maqsad va vazifalarni anik-ravshan aks ettiradi. Uning vositasida xar bir vatandoshimiz biz qanday jamiyat, qanday davlat, Qanday tuzum barpo etmokdamiz, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy asoslari nimalardan iborat, degan savollarga javob topa oladi.

Ushbu mavzu yuzasidan bir qator olimlar izlanishlar olib borganliklari diqqatga sazovordir. Mafkuraviy immunitet muammozi bo'yicha turli soha vakillari, jumladan faylasuflar, sosiologlar, psixologlar, psixofiziologlar va pedagoglar (B.G.Ananyev, G.M.Andreyeva, A.A.Bodalev, Ye.V.Shoroxova, A.V.Vedenov, Yu.M.Zabrodin, A.G.Kovalev, I.S.Kon, T.A.Kitvel, V.S.Merlin, V.N.Myashev, I.P.Pavlov, K.K.Platonov, Ye.D.Parigin, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, V.A.Yadov, I.Aizen, M.F.Fisehbein, T.Maslay va boshqalar) o'z tadqiqot maqsadlariga asoslanib Mafkuraviy immunitetining turli yo'nalishlar bo'yicha tadqiqot ob'yeqtiga aylantirganlar va ma'lum darajada munosabat mezonini talqin qilishning nazariy-fundamental asoslarni yaratganlar. E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, N.S.Safoyev, Sh.R.Barotovlar, N.A.Yaxyarovlarning rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda Mafkuraviy immunitetning ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatidagi talqinlariga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan.

Ilg'or ilmiy psixologiya fanida shaxs ijtimoiy taraqqiyoti bo'yicha yaratilgan umumiyligi qonuniyatlar, konsepsiylar, shuningdek, shaxsga individual yondashuv prinsiplari (B.M.Teplov, V.S.Merlin, N.S.Leytes, E.A.Golubeva, B.R.Qodirov, E.G'.G'oziyev va boshqalar). Shaxs va ijtimoiy ustavokka prinsiplari (D.O'znadze, Sh.A.Nadirashvili, A.G.Asmolov, G.Ollport, G.Rozenberg va boshqalar), shaxs va munosabat mutanosibligi prinsiplari (V.N.Myashev, T.Liri, S.L.Rubinshteyn, B.S.Merlin va boshqalar), buyuk ajdodlarimizning ta'lim- tarbiya to'g'risidagi

ta'lismotlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari g'oyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lism to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqalar.

Ma'lumki, har qanday millat va xalq har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlari, maqsad-muddaolari, orzu-intilishlarini ko'zlab harakat qiladi. Binobarin, ular hayotdagi ma'lum bir Mafkuraga tayanadi.

Xo'sh, Mafkura nima, u qanday g'oyalar asosida shakllanadi va qay tarzda jamiyatni harakatga keltiradi? Nega ayrim Mafkuralar ba'zi millatlarning, yuksalishiga sabab bo'lsa, ayrimlari butun-butun xalqlarni inqiroz va tanazzulga duchor etadi? «Milliy istiqlol g'oyasi» bo'yicha mazkur mashg'ulotimiz aynan shu va shu kabi masalalar talqiniga bag'ishlangan.

G'oya tushunchasi. Ma'lumki, inson o'zining aql-zakovati, iyomon-e'tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi.

Inson - ongli mavjudot. Ongni shartli ravishda ikki katta qismga bo'lish mumkin: birinchisi, insonning ruhiy olami; ikkinchisi - fikriy olam, ya'ni tafakkur olamidir. Ruxiy olam (bu soxani ruxshunoslik ilmi - psixologiya tadqiq etadi) o'z tarkibiga sezgilar, idroq, tasavvur, kechinma, xis-xayajon, dikkat, xotira va boshqalarni qamrab oladi. Tafakkurning mantiqiy shakllariga tushuncha, xukm va xulosa kiradi (bularni logika, ya'ni mantiq fani urganadi).

Falsafaning oltin qoidalaridan biri - til va tafakkur birligidir. Tilning eng birlamchi maxsuli so'z bo'lgani kabi, tafakkurning dastlabki shakli - tushunchadir. Tushunchalar bir yoki bir necha so'zlar bilan ifodalanadi; ammo xar qanday so'z xam tushuncha bo'la olmaydi. So'zlar vositasida anglatilgan fikr gap deb atalishini biz boshlang'ich sinflardanok bilganmiz.

Inson tafakkuri vokelikni idroq etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'lismotlar yaratadi. Binobarin, g'oyalar xam inson tafakkurining maxsulidir. Lekin tafakkur yaratgan xar qanday fikr yoki qarash, muloxaza yoki nuqtai nazar g'oya bo'la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta'sirchan, zalvorli fikrlargina g'oya bo'la olishi mumkin.

Mafkuraviy ta'sir va taxdidlar haqida gap ketar ekan, ularni aniqlash, baxolash, xususiyatlarini yaqqol ko'rsatish uchun 1-Prezident Islom Karimov tomonidan ilmiy muomalaga bir qator tushunchalar kiritilganligini qayd etish lozim. Ular qatorida «Mafkuraviy immunitet», «Mafkuraviy profilaktika» kabilar bor. Ana shu tushunchalarning mazmuni oydinlashtirilganda xozirgi dunyoda kechayotgan Mafkuraviy jarayonlarning xarakterini yanada yaqqolroq tasavvur qilish imkonini tug'iladi.

Nima uchun kishilar ongi va qalbi uchun kurash turli Mafkuralarning bosh maqsadiga aylanib qoldi? Gap shundaki, muayyan g'oya tom ma'noda g'oya bo'lishi uchun kishilar ongini egallashi, to'g'rirogi ularning qalbidan joy olishi shart. Aks xolda u yoki bu g'oya faqat muayyan xabar yoki axborot sifatida saqlanib koladi, xolos. Boshqacha aytganda, omborxonadagi keraksiz buyumlar kabi ongimizning bir chetidan joy egalab yotaverishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, bunday xolatda g'oya shaxs uchun hyech qanday ijtimoiy axamiyatga ega bo'lmaydi. G'oya faqatgina inson qalbini egallaganda, inson ma'naviy-ruxiy xolatining uzviy qismiga aylangandagina harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, xarakat uchun qo'llanmaga aylanadi. Shuning uchun xam bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini xam egallahash Mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda. Aynan shuning uchun xam Yer yuzining turli mintaqalari xalqlarining ongi va qalbi turli g'oyalarni sinash maydoniga, boshqacha aytganda Mafkuraviy poligonga aylantirilmokda. Xush, Mafkuraviy poligon deganda nimani tushunamiz? Poligon (grek. serkirra degan ma'noni bildiradi) xarbiy termin ekanligiga urganib qolganmiz. Odatda poligon deganda qurol-aslaxa va texnikani sinash, qushinlarni xarbiy tayyorgarlikdan utkazish yoki xarbiy soxada mashk va tadqiqotlar olib borish uchun muljallangan maxsus maydon tushuniladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Mafkuraviy poligonlarning xususiyatlari haqida nima deyish mumkin? Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zga xududlarni zabit etish maqsadida ishlatiladigan urush qurollari uzlusiz takomillashib borganini ko'ramiz. U nayzalardan toki avtomatik qurollargacha, zambaraklardan to yer yuzining xar qanday nuqtasiga bexato yetib boradigan qit'alararo ballistik raketalargacha bo'lgan uzoq takomil yo'lini bosib o'tdi. Bu quollar bosib olinishi kerak bo'lgan hududlar axolisini jismonan yo'q qilishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, o'zga xududlarni zabit etish uchun ularning axolisini yo'qotish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabit etilgan, qarash va kayfiyatları «ma'qul» yo'nalishga o'zgartirilgan axoli ko'magida xar qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo'lib qolmoqda. Mamlakatimiz ichida o'zlarining g'ayriislomiy g'oyalarini tarqatishga xarakat qilgan kimsalar ana shunday g'arazli maqsadlarni, ya'ni odamlar, ayniqsa yoshlarni chalg'itish, ular yordamida mamlakatni o'z taraqqiyot yo'lidan chetlatib yuborishni ko'zda tutgan edilar. Chet ellarda ana shunday «ta'lim» olgan vaxxobiylar, shuningdek «xizbut taxrir»chilarning yoshlarmiz ongini zaxarlash yo'lidagi harakatlarini ham aynan shunday baholash mumkin.

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo, bilimlar ko'p. Masalan, buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik Mafkurasi va amaliyoti tarafdarlari ham muayyan «bilim»larga tayanadilar va uni boshqalarga singdirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, bir tomonidan Mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'yektiv bo'lishi, voqyelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ikkinci tomondan, bu bilimlar mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va xalq manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlar ustivorligi bilan uzviy bog'lik bo'lmoqi kerak.

Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy qismi ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik ob'yektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, shaxs, millat yoki davlatning qadriyatlar tizimi Mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va Mafkuraviy tajovuzlar qarshisida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Ammo, bilimlar va qadriyatlar tizimi ham Mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki unsur Mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim unsuri, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi aniq mo'ljal va maqsadlar tizimi bilan bog'liq. Ya'ni har bir kishi kabi, xalq davlat va jamiyatning ham aniq maqsadi bo'lishi shart. Shu bilan birga bu maqsad anglangan, uni amalga oshirishda sobitqadamlik darkor. Ana shunday aniq tizim bo'lmas ekan, xox alohida inson, xox millat yoki jamiyat bo'lsin, goh oshkora, goh pinxona ko'rinishdagi Mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berish amrimaholdir.

Bunday Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda Mafkuraviy profilaktikaning o'rni katta. Zero, u o'z mohiyatiga ko'ra, yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora - tadbirlar majmuuni o'z ichiga oladi. Demak, Mafkuraviy profilaktika xilma-xil shakllarda ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g'oyaviy- tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmuuni, bir so'z bilan aytganda, bu sohada to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya tizimini qamrab oladi.

Har bir shaxsning fe'l-atvorida, xatti-xarakatlarida u mansub bo'lgan millat, xalq professional toifa, jamoa va oilaning ijobiy yoki salbiy ta'siri bo'ladi. Tarixiy shart-sharoit, davr, davlat to'zimi va usha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va Mafkuraviy ta'sirlar uning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, tafakkurida o'z aksini topadi. Bunday ta'sirlarning ikki xili mavjud:

- makro bosqichdagi ta'sirlar yoki keng ma'nodagi psixologik, ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy xamda iqtisodiy muxit ta'sirlari;
- mikro bosqichdagi ta'sirlar yoki bevosita inson bolasi tug'ilib o'sadigan oila, ta'lim va tarbiya maskanlari, mexnat jamoasi, maxalla va dustlar muxitidagi ta'sirlar.

Bir qarashda inson fe'l-atvorini ikkinchi bosqich ta'sirlargina belgilaydiganday tuyuladi. Chunki, «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deganlaridek, ayniqsasa, o'zbekchilikda odamning oilasi, nasli-nasabi, maxallasi, ta'lim olgan bilim dargoxiga katta e'tibor beriladi va bunday munosabat hayotda o'zini oqlaydi xam. Lekin makro bosqichdagi ta'sirlarning axamiyatini xam kamsitish to'g'ri bulmaydi. Umuman, tarixdan xam ma'lumki, qaysi davlat va mamlakatni olmaylik, boskinchilik siyosati yurgizilgan jamiyat odamlarining psixologiyasi mustaqil yurt fuqarolari psixologiyasidan keskin farq qiladi.

Mustaqillik psixologiyasi shundayki, unda xar bir fuqaro o'zining erkin mexnati bilan o'zi va o'zgalar manfaati haqida birday qayg'uradi, chunki fidokorona mexnat yoki tinimsiz izlanishsiz na bir shaxsning, na jamoaning biri ikki bulmaydi.

O'z istiqlol yo'lini tanlagan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub isloxitlar xam aynan shu yurt, shu zaminda tugilib, yashab, mexnat qilayotganlar manfaatini ko'zlashini xar bir erkin fuqaro tula anglaydi.

Xar bir aloxida shaxs ongi va shuurida shakllangan tuyg'ular, fikrlar va munosabat yaxlit jamiyat, xalqning fikri va g'ururiga shaklanganda shunday qudrat kasb etadiki, okibatda erkin va xur yashash, Vatan tinchligi va xar bir oilaning xotirjamligini ta'minlash xalqning e'tiqodi bo'lib qolishi lozim. Demak, kupchilikning maslak va tilaklari, fikrashi va munosabatiga aylangan g'oya, tasavvur va bilimlar tizimi xalq e'tiqodi deb ataladi.

Xalq e'tiqodi va uning ruxi shunday qudratli ta'sir kuchiga egaki, u xar bir sog'lom fikrlovchi insonni ijodiy faoliyatga, kasbi-korning halol bo'lishiga zamin yaratadi. O'zbek xalqi ana shunday iloxiy marxamatga sazovor bo'lgan, o'z milliy e'tiqodiga ega millatlardan biridir. Buni biz buyuk insonlar, mutafakkirlar timsolida ko'rsak bo'ladi. Chunki xalq ruxi va undagi e'tiqodni millatning eng ilg'or vakillari, mutaffakkirlar ifoda etadi. Xalq e'tiqodi, yuqorida e'tirof etilganidek, xar bir shaxs e'tiqodining yo'nalishini belgilaydi. Atrofdagilar va yakinlari taqdiriga befarq bo'limgan, ko'pchilik manfaatini o'z manfaatdan ustun bilgan inson bunday e'tiqodga berilgan va undan ta'sirlangan xisoblanadi.

Agar inson bolasining tug'ilish onlaridan boshlab uning ilk rivojlanish davrlari xususiyatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, dastlab u tabiatan faqat o'z ichki

xissiyotlari, tuyg'ulari domida – muayyan xudbinlik doirasida rivojlanadi. Ya'ni, uning uchun o'z xoxish-istiklari, extiyojlari va ularni qondirishdan ortiq tashvish yo'qday. Lekin o'sha ehtiyojlar orasida ota-onasiga, eng yakinlariga nisbatan hissiy intilish, ular bilan emosional muloqotga kirish istagi kuchli bo'lgani sabab u insonlar jamiyati va undagi munosabatlar me'yorlarini sekin-asta o'zlashtirib boradi. 3 yoshdan so'ng oiladagi muloqotga tengqurlar jamiyatidagi muloqot qo'shilishi munosabati bilan bola xudbinlik kayfiyatidan yanada tezroq voz kecha boshlaydi. Aks xolda jamiyat, ko'pchilik uning injikliklarini ko'tarmaydi. Shu tarzda sog'lom mulokot muxiti bolani ko'pchilikning fikriga ergashish, ko'pchilik xaq deb e'tirof etgan axloq me'yorlarini egallash, insongarchilik tamoyillariga amal qilishga o'rgatadi.

Shunday qilib, bola uchun keng ijtimoiy muxitdagi sog'lom g'oyalardan, xalq ruxining qadriyatlaridan to'la baxramand bo'lish imkoniyati tug'iladi.

Ezgu fikrning ta'sirchanligi. «Yaxshi so'z - qilichdan xam kuchli» degan gap bor. Darhaqikat, o'rnida ishlatilgan so'zlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutq, bama'ni fikr har doim odamlarning xulk-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday fazilatlar sohibini odatda «Bama'ni odam» deb ta'riflashadi. Bunday shaxslar sog'lom muloqot muxitida fazilatlarini o'zgalarga namoyish qila oladi, o'zini erkin tutadi va o'ziga ishonadi.

Biz e'tiqodni shakllantiruvchi xar bir omilning ta'sir kuchi nimalarga bog'liqligini bilishimiz kerak. bo'lar kuyidagilardir:

- a) ta'sir ko'rsatuvchi manba-shaxs yoki gurux, boshqacha qilib aytganda, kommuniqator;
- b) ta'sir mazmuni yoki ma'lumot;
- v) ta'sir vositasi yoki ma'lumot yetkazuvchi tarmok;
- g) ta'sirni qabul kiluvchi yoki auditoriya.

Ta'sir ko'rsatuvchi shaxs – ta'lim beruvchi. Ta'sir ko'rsatuvchi shaxsdan nimalar talab qilinadi? Avvalo, tajriba, bilimdonlik, ishontira olish qobiliyati, uning nutqi, o'ziga ishonchi va boshqalar. Mafkurachilarining asosiy ish uslubi, metodlariga O'zida mavjud bilim, tushuncha, g'oyalarni asos qilib olgan xolda, birinchi navbatda yoshlarda, kolaversa, keng xalq ommasi ongida mustaxkam e'tiqodni shakllantirish, ta'sir ko'rsatish va taqlid etishga chorlashdir. Bunda u mulokotning barcha samarali va ta'sirchan vositalaridan – monolog, dialog, baxs-munozara, breynshorming kabilardan foydalanadi. Aynan ana shu faliyat xar bir ta'sir ko'rsatuvchining ritorika asoslaridan xabardor bo'lishini, nutq maxoratini egallashini talab qiladi. So'zlovchi o'z nutqida nutqiy va nutqiy bulmagan vositalardan o'z urnida maqsadga muvofiq tarzda foydalana olishi shart. Agar voiz

yoki notiq o'ziga berilgan minbarda faqat so'z va iboralar tizimidan foydalanish bilan cheklansa yoki kogozga tushirilgan matndan chetga chikolmasa, uni auditoriya tinglamaydi, unga ishonmaydi. Shuning uchun xissiy ta'sir usullari – urinli ishlatilgan qarashlar, imo-ishora, mimika va patomimika kabilar xam ta'sirni kuchaytiruvchi psixologik mexanizmlar ekanini unutmaslik kerak.

Tarbiyachidan talab qilinadigan yana bir muxim xislat - gapiroayotgan kishining yokimtoyligidir. Bu xam notiqka nisbatan ishonch va e'tiqodni oshiradi. Yoshlar auditoriyasida, voizning murojaatiga e'tibor jiddiyroq bo'ladi. Ziyoli, olimlar auditoriyada, mantiqiy, ilmiy taxlillarga asoslangan fikr va muloxazalar katta ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Axborotning mazmuni. Notiqning nima haqida gapiroayotgani xam Mafkuraviy tarbiyada muxim urin tutadi. Tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, odamlarga xam aklan asoslangan - (rasional), xam emosional (xissiyot uygotuvchi) ma'lumotlar tez ta'sir qiladi. Bunda auditoriya xususiyati nazarda tutilishi kerak. Masalan, ukimishli, tushungan odamlar auditoriyasi faktlarga tayangan, asosli ma'lumotni tez qabul qilib, unga ishonsa, kichik yoshlilar, ma'lumot darajasi pastroq shaxslar kuproq yurakka yakin, emosional ma'lumotga uch bo'ladi. Bundaylar xattoki ulardagi ayrim negativ xis-tuyg'ularni ko'zgatuvchi ma'lumotlarga nisbatan xam faolroq bo'ladi. Shuning uchun xam kasallikka qarshi yoki zararli odatlarga qarshi karatilgan reklamada kupinchha daxshat uygotuvchi rasmlar beriladi. Yoki fikrni o'zgartirish uchun berilayotgan ma'lumot tinglovchida mavjud bo'lgan bilimlardan keskin farq kilsa xam unda yangi ma'lumotga nisbatan ishonch va uni qabul qilishga moyillik kuchli bo'ladi. Mafkuraviy axborot yozma yoki ogzaki tarzda yetkazilishi mumkin. Agar birinchisiga gazeta, jurnallar, kitob va darsliklar, yozma manbalarda mujaassamlashgan ma'lumotlar kirsa, ikkinchisiga ma'ro'za ukish, darsni bayon etish, munozara va suxbatlar utkazish kiradi. Bundan tashkari, Mafkuraviy g'oyalar turli badiiy va xujjatli filmlar, bolalar yoki kattalar uchun yaratilgan multfilmlar orqali xam yetkazilishi mumkin. Muximi, ular xalq ma'nnaviyati, ulmas merosimiz, kelajakka ishonch uygotuvchi ma'no-mazmun bilan yugrilgan bo'lishi kyerak.

Ma'lumotlarning mazmundorligi va ta'sirchanligini ularning ommabopligi, bildirilgan yoki ifoda yetilgan g'oyalarning sodda, ixcham va ravon bayon qilinishiga kup narsa bog'liq. Tinglovchi xar bir so'zni tushunsagina, unda teran munosabat shakllanadi.

Bundan tashqari, birlamchilik va ikkilamchilik samarasi qonuniyati xam bor. Uning moxiyati shundan iboratki, dastlab qabul qilingan ma'lumotning mazmuni odamga kuchliroq ta'sir qiladi. Lekin, ikkinchi tomonidan, tinglovchi tomonidan

oxirida eslab kolingen ma'lumot xam xotirada mustaxkam o'rnashadi. Buni xam mafkuraviy tarbiya jarayonida albatta inobatga olish zarur.

Bolalar bilan milliy g'oyalarimiz xususida olib boriladigan suxbatlarda tarbiyachi yoki murabbiy avvaldan tayyor savollar tartibini ishlab chikishi, ishlatiladigan tayanch iboralar katta axamiyat kasb etadi. Bunda xar bir jumla yoki iboraning konkretligi, hayotiyligi va obrazliligi muxim axamiyatga ega bo'ladi.

Mafkuraviy tarbiya ishlari samaradorligini baxolash mezonlari. Bu - uta nozik va mas'uliyatli ish. Agar bunday ish 15 kishigacha bo'lgan kichik auditoriyalarda amalga oshirilgan bulsa, unda tinglovchi - yoshlar, tarbiyalanuvchilar yoki talaba-o'quvchilarning dunyoqarashlarini bevosita suxbatlar, yozma ishlar va ularning ishga, vokea-xodisalarga bo'lgan munosabatlari orqali aniklab, mashgulotlarni kayta-kayta utkazish mumkin.

Agar auditoriya 15 kishidan 100 kishigacha bo'lgan o'rtacha kattalikda bulsa, unda odatda tadbir yoki turli mavzulardagi yigilishlarda jam bo'ladigan odamlar guruxi nazarda tutiladi, uning samarasini bir martada aniklash mushkul bo'ladi. Chunki psixologiyada shunday qonuniyat borki, auditoriyani tashkil etuvchi odamlar soni ortib borgani sari uni tashkil etuvchilar bir-biriga juda uxshab boradi. Shuning uchun 100 va undan ortik, 200, 300 kishilik auditoriyani to'plab utkazilgan ma'naviy va Mafkuraviy tadbirlar samaradorligini oshirishda juda kup omillar xisobga olinishi kerak. Bunday sharoitda baxs yuritish, fikr almashish yoki odamlarning yetkazilayotgan ma'lumotni kay darajada o'zlashtirayotgani bo'yicha monitoring olib borish ancha murakkab bo'ladi. Bunday paytlarda yangilikka uta uch tinglovchi xam voziga nisbatan neytral mavkeni egallashi, uning fikrlariga tulik ergashmasligi mumkin. Chunki bu yerda g'oyalarga ayrim alovida shaxslar emas, guruxlar ergashadi. Agar muayyan gurux axborotni qabul qilishga umuman moyil bulsa, unda tinglash qobiliyati bo'ladi, aksincha, xech kim xech narsani tushunmaganday utiraveradi. Mabodo tinglovchilar orasida savol beruvchilar paydo bulsa, bu savol kupchilikka ma'kul bulmasligi yoki ayrimlarga yokishi mumkin, bunday vaziyatda topkirlik va zukkolik qilib, barchaga ma'kul keladigan gaplarni topa olishi lozim.

Shuning uchun Vatan va yurt takdiriga aloqador muxim mavzulardagi uchrashuv va ma'ro'zalar imkon kadar torroq davralarda, tugarak stollar atrofida amalga oshirilsa samarali bo'lishi psixologiyada va ijtimoiy ta'sir amaliyotida isbot qilingan.

Mafkuraviy ta'sir samaradorligini ulchash mezonlari kuyidagilardan iborat:

- axolining siyosiy bidimdonligi, ijtimoiy faolligi;

- jamiyatning ma'naviy sog'lomligi, odamlarning o'zini ruxan tetik va bardam tutishi;
 - vatanparvarlikning turli kurinishlari kundalik turmushda tobora kuproq namoyon bo'lib borayotgani;
 - axolida ma'lumotlilikdan manfaatdorlik kayfiyatining borligi, barchada bilim saviyasini oshirishga intilishning kuchayishi, gazeta-jurnal, vaktli matbuot, nashriy ishlarga talab va taklifning ortib borishi;
 - jinoyatchilik va huquqbo'zarlik xolatlarining yil sayin kamayib borishi, ayollar va usmirlar o'rtasida sodir etiladigan jinoyatchilikning bartaraf etilishi;
 - giyoxvndlilik va turli zararli odatlarning yoshlar o'rtasida yil sayin kamayib borishi, bunda keng jamoatchilikning faol ishtiroki;
 - diniy, dunyoviy bilimlarga muqobil munosabat, shu soxalardagi adabiyotlarga nisbatan extiyojning bir maromda saqlanishi;
 - oilalarning mustaxkamligi, ajrimlarning kamayib borishi;
 - fuqarolarda qonunlarga nisbatan itoatkorlikning shakllanishi;
- butun jamiyat miykosida sog'lom ma'naviy va ijtimoiy muxitning shakllanishi.

XULOSA

Shunday qilib, kasb hunar kollejlari talabalari qalbiga milliy g'urur, milliy o'z-o'zini anglash, milliy ong singari yuksak insoniy fazilatlarni singdirish uchun g'oyaviy chiniqtirishning ayrim ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini maxsus tadqiqot predmeti sifatida o'rganish va tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri xisoblanadi

Zero, Mafkuraviy immunitetni o'rganish muammosi nafaqat ijtimoiy psixologiya fani taraqqiyoti uchun, balki o'quvchi-yoshlarning usib borayotgan ma'naviy extiyojlarini urganish va milliy istiqlol g'oyasiga nisbatan ularda qiziqish xamda ijobiy munosabatni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishi mumkin.

«Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga taxdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan xukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yulida foydalanishga qaratilgan intilish va xarakatlar domiy xavf sifatida saklanib qolishi muqarrar», - deb yozadi 1-Prezidentimiz. Shunday ekan, voyaga yetayotgan xar bir farzandimizni ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun, bir so'z bilan aytganda, kuchli Mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishning asosiy shartlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Milliy istiqlol g'oyasini chuqur egallash orqaligina Mafkuraviy maydonlarda olib borilayotgan kurashlar moxiyatini to'g'ri tushunish va oldini olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Andreyeva G.M.Sosialnaya psixologiya:-Uchebnik.-2-ye izd. -M.:Izd-vo MGU,1988.- 432 b.
 2. Baratov Sh.R. Sosialno-psixologicheskiye i nauchno-prakticheskiye osnovy sozdaniya psixologicheskoy slujby v Uzbekistane: avtoref. dis. dok. psixol. nauk. Toshkent 1998.-37 s.
 3. Beruniy A. Tanlangan asarlar. II tom. Toshkent, 1965. - 125 bet
 4. Barotov Sh.R.Boshlang'ich ta'lim tizimida psixologik xizmat muammosi/ Boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari.Resp. ilmiy-amal.anjum.ma'ro'zalarining tezislari.-Buxoro,-1995.-B.15-21.
 5. Vygotskiy L.S. Sobr.soch. T.4., M.: Pedagogika, 1984.
 6. Isoqova M.T. Milliy an'analar va ijtimoiy omillar ta'sirida ilk o'spirinlarda ma'naviy tasavvurlarni shakllantirish. Fan nomzodi... diss. avtoref., - T., -1999. Karimova V.M. Yangi turdag'i ta'lim muassasalaridagi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning psixologik muammolari//Yangi turdag'i o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim tarbiyaning samaradorligini oshirishning psixologik muammolari.Toshkent, 1 998.-10-13 betlar.
 7. Barotov Sh.R.O'quvchi shaxsini o'rganish usullari -T.:O'qituvchi, 1995.- 56 b.
 8. Barotov Sh.R. Kichik yoshdag'i o'quvchilar faoliyatini baxolash.- T.: O'qituvchi,1992 -48 b.
- Internet saytlari
1. [www/http/arxiv.uz](http://www/arxiv.uz)
 2. [www/http/zionet.uz](http://www/zionet.uz)